SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
QARORI

2022 - yil 29 - dekabr 490-9-130-Q/22 Guliston shahar hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma‘lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning 10, 12 bandlari, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma‘lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Guliston shahar bo‘limi (B.Radjapov) ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma‘lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta‘minlasin.

3. Shahar hokimligi matbuot xizmati (SH.Yunusov), “Guliston yangiliklari” - “Gulistanskiye novosti” gazetasi tahririyati (F.Toshmatov)lar ushbu qaror rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati shahar hokimining o‘rinbosari Z.Umarqulov zimmasiga yuklansin.

Guliston shahar hokimi **T.T.Dadabayev**